DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-oje-05-03-05 Pages: 36-43

Oriental Journal of Education

SUPPORT SCIENCE

ORIENTAL JOURNAL OF EDUCATION

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/oje



INTERJECTIONS IN THE KOREAN LANGUAGE AND THEIR TYPES

Husnida Aslonova
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: husnidaaslonova@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Emotion, exclamation mark, emotional exclamations, basic exclamations, typical speech exclamations, army-inviting exclamations.

Received: 26.04.25
Accepted: 28.04.25
Published: 01.05.25

Abstract: This scientific article is devoted to the analysis of exclamations expressing emotions and their types in the Korean language. It explores what needs to be acquired to create lively and natural speech in Korean and highlights the crucial role of emotions in this process. The study discusses the various means through which emotions are expressed in Korean, emphasizing the unique role of interjections among them.

KOREYS TILIDA UNDOV SO‘ZLAR VA ULARNING TURLARI

Husnida Aslonova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: husnidaaslonova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: emotsiya, undov so‘z, his-hayajon undovlari, tayanch undovlar, nutqdagi odatiy undovlar, harbiy chaqiruv undovlari.

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola koreys tilida emotsiyani ifodalovchi undov so‘zlar va ularning turlari tahliliga bag‘ishlanadi. Unda koreys tilida jonli va tabiiy nutq yaratish uchun nimalarni o‘zlashtirish lozimligi va bu jarayonda emotsiya qanday muhim ahamiyat kasb etishi yoritib berilgan. Koreys tilida emotsiya nimalar orqali ifodalanishi, shuningdek, ular orasida undov so‘zlar alohida o‘z o‘rniga ega ekanligi haqida mulohaza yuritilgan.

МЕЖДОМЕТИЯ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ВИДЫ

Хуснида Аслонова
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан
E-mail: husnidaaslonova@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Эмоция, восклицательный знак, эмоциональные восклицания, основные восклицания, типичные речевые восклицания, призывные восклицания.

Аннотация. Данная научная статья посвящена анализу восклицаний, выражающих эмоции, и их типов в корейском языке. В нем объясняется, чему нужно научиться, чтобы создавать живую и естественную речь на корейском языке, и насколько важны эмоции в этом процессе. Особое внимание уделяется тому, каким образом эмоции находят выражение в корейском языке, и почему среди них важную роль играют восклицания.

Kirish. Har bir til o‘rganuvchi xorijiy tilni o‘rganganda o‘sha tilda ravon va tabiiy so‘zlashishni oldiga maqsad qilib qo‘yadi. So‘zlovchining nutqi esa faqat ma’lumotdan emas, balki, emotsiyadan ham tashkil topgan bo‘ladi. Qachonki til o‘rganuvchi so‘zlayotgan nutqini unga mos emotsiya bilan boyitsa, shunchalik uning nutqi jonli va tabiiy chiqadi. Shu boisdan talabalarga koreys tilini o‘qitishda ularga albatta koreys tilida emotsiyani ifodalovchi birliklarni ham o‘rgatish lozim. Koreys tilida emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplarni yasashda undov so‘zlar, undov kesimlik qo‘shimchalari va emotsiyani ifodalovchi sifatlardan foydalaniladi. Quyida undov so‘zlar yordamida yasalgan emotsional bo‘yoqdorlikka ega gaplarning tuzilishi bilan yaqindan tanishamiz.

Asosiy qism. Koreys tilshunosi So Jong Su (서정수) o‘zining tadqiqotlarida undovlarni ikki guruhga bo‘ladi:

1) 감정감탄사 emotsional undovlar;

2) 의지감탄사 xohish-istak undovlari.

Lekin boshqa ko‘p koreys tilshunoslari undovlarni uch guruhga bo‘lishadi:

1) 감정감탄사 emotsional undovlar;

2) 의지감탄사 xohish-istak undovlari;

3) 입버릇 및 더듬거림 rasm-odat undovlari [Madaminova, 2014:16].

D. Madaminova koreys tilidagi undov so‘zlarni quyidagicha tavsiflab bergan:

1. 감정감탄사 His-hayajon undovlar

His-hayajon undovlar so‘zlovchining sevinch, qahr, qayg‘u, qarshi bo‘lish kabi his-hayajonini ifodalaydigan undovlardir.

Koreys tilida his-hayajon undovlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

a. 기쁨 sevinch, shodlikni ifodalovchi:

오, 어, 와, 허, 허허, 하, 하하... 어, 좋다!- O, zo‘r!

오, 이건영이! - Xo, Li KonYong-ku!

b.성냄 g‘azablanishni ifodalovchi:

에, 엣, 에이, 에게, 에익, 엑기, 원; 야,(참) 에 에이, 귀찮다 - Ey, jonga tegdi!

엣, 송장이다! 죽은사람이다!- Voh , murda! O'lgan odam!

c.슬픔 qayg'u, xafalikni ifodalovchi:

애고, 아이고, 에구, 어이구, 어...

아이고, 아퍼- Voy, og'riyapti.

d.한숨 Xo'rsinish, qiyinchilik :

허, 허허, 하, 하하, 후, 후유, 아아...

허허, 아 이런 변 보았나! - O'x-xo', endi bu yog'i ham ko'rindi-ku!

아아, 지옥 같은 농촌의 밤이여!- Hmm, jahannamdek qishlog'imiz tuni-ey!

e. 놀라움 Hayrat, zavq:

아, 아아, 애고, 아이고, 아이고, 에고, 에구머니, 익기, 이크, 야아, 아따, 에따, 와따, 아이, 저런,

아이구, 이게 웬 돈이야! - Voy, bu qanaqa pul!

에구머니, 영감마님 오셨네.- Voy, buni qarang-a, cholimiz tashrif buyuribdilar-ku!

아이, 자네같이 귀한 사람이 어떻게 우리집에 있나.- Voy, sizdek aziz inson qanday qilib bizning uyda-ya.

에그머니, 영감마님 목소리야!- Voy, o'lmasam cholimizning ovozlari-ku

f.뉘우침, 넋떨어짐 Achinish, afsuslanish, bezovtalanish:

어, 엉, 아뿔사, 어뿔사, 아차...

아뿔사신상, 그것 자붓지 마시오.-Voy daxshat, uni yemang.

어, 이거 큰일 났군. - Voy, rasvosi chiqibdi-ku!

아차!- Ehh, afsus!

j.무서움 Qo'rquv :

아이구, 아, 이이, 에비, 에비야, 아야...

아이고, 이 애가 이마에서 피가 흐르는구나.- Voy-dod, bu bolaning peshonasidan qon oqayapti-ku.

아야, 아야 사람 살리우! - Voy-dod, voy-dod odam qutqaring!

h.여김 ….deb hisoblash:

참, 정말, 그렇지, 아무렴, 암.

참, 맛난데.- Juda-a mazali ekan.

암, 그렇고 말고. - Ha-a, unday emas-da.

j.미움 Nafratlanish :

퉤,체,체기할,흥,엑...

엑이놈! - Voy yaramas!

k.놀림 Hazillashish :

에뚜에,따,아주,얼싸,어럽시오,용용,알랑총 [Madaminova, 2014:19].

2.의지감탄사 Xohish- istak undovlari

Xohish-istak undovlari so‘zlovchining rad etish, chaqirish, rozilik, inkor etish, xohishini ifoda etadi. Biroq suhbatda tinglovchining mavqei katta o‘rin tutadi. Bu turdagi undovli ifodalar undovli so‘zlar orqali ifodalanib, noto‘g‘ri gaplarda ishlatiladi. Ushbu turdagi ifodalar yuqorida keltirilgan hissiy birikmalar bilan bir xil bo‘lsada, ma’noviy jihatdan his-tuyg‘ularni ko‘rsatib bera olmasligi sabab, o‘zaro farq qiladi. Undovli ifodalarda chaqiruv so‘zlari, “예”, (ha) “아니오’’ (yo‘q) javobni bildiruvchi so‘zlar, “글세”(nima desam ekan), “에”(mm), kabi kirish so‘zlari bilan bir xil ma’nodagi so‘zlarni o‘z ichiga oladi. Undov so‘zlar o‘zi alohida ham qo‘llansa-da, asosan, undov so‘zlaridan keyin uni to‘ldiruvchi boshqa birikma keladi:

1. a) 여보. Azizim.

2. b) 영감님, 여보영감님.- Cholginam, azizim cholim.

3. a) 예/아니요 ha/yo‘q.

b) 예, 그렇습니다/ 아니오, 그게아닙니다. - Ha, shunaqa/ Yo‘q, unaqa emas.

4. a) 글쎄요. Nima desam ekan.

3.입버릇 및 더듬음 감탄사 Nutqdagi odatiy undovlar

Undovlarning bu turi nutqimizda tez-tez ishlatilib, odatga aylanib qolgan undovlardir. Bular oldingi ikki turdagi undovlardan hech qanday grammatik ma’nosi yo‘qligi bilan ajralib turadi. Ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

a. 머, 뭐(무어), 그게말이지, 말이어, 말이요, 말입니다.

b. 어, 에, 저, 거시기, 음, 엠헴, 애햄

(a) da hech qanday hissiz, o‘ylovsiz oddiy so‘zlashgandagi odatlar (입버릇), (b) da esa o‘ylagan gapini tez ifodalay olmay duduqlanganga o‘xshash, hech qanday ma’nosiz chiquvchi ovoz.

Masalan:

자네말야. Sen bor-ku.

자네가 누구? -Haligi, ana u bor-ku.

어떡한단말이요. - Mm, nima qilsam ekan.

아버지,있잖아요, 우리 학교에서 봉사 돈을 모으고 있대요. -Dadajon, anu, maktabimizda yordam puli yig‘ishayotgan ekan.

내가말이야, 그책을말이야, 다 읽었어. -Menmi, u kitobnimi, allaqachon o'qib bo'ldim.

저기,아까 말씀드린 여자말인데요.-Haligi, boya aytgan ana u qiz haqidagi gapni nazarda tutyapman.

저기,가줄래. – Haligi, borolasanmi?

자, 보아요. –Xo'sh, qarang.

네, 부르셨어요? -Labbay, chaqirdingizmi?

네, 그저께 아침 차요.-Ha, o'tgan kungi ertalabki choy [Madaminova, 2014:25].

Bulardan tashqari, quyidagi undovlarni urf-odat undovlari (ayrim manbalarda nutqiy odat undovlari deb ataladi) tarzida ajratish mumkin:

감사합니다-rahmat, 어서오세요-marhamat, 여보세요-allo, eshitaman, 안녕-salom, xayr, barakalla, ofarin, balli, yashang, hormang, qul-luq va h.k.

Li Shi Ye (이시애) "감탄사를 정의해 보면, 감탄사는 기능면에서 다른 언어와 어떤 관계도 맺지 않고, 형태적으로 불변하는 문법적 성질을 가지며, 화자의 내면 상태나 정신 작용을 표출하거나 화자의 뜻을 전달하는 데에 상황 의존적으로 쓰이는 단어라고 정의할 수 있다" [Li Shi Ye (이시애), 2011:218].

(Undov so'z funksional tomondan boshqa so'zlar bilan hech qanday aloqa bog'lamaydi. U so'zlovchining ichki holatini yoki aqliy harakatini ifodalash yoki so'zlovchining niyatini bildirish uchun kontekstga bog'liq holda qo'llanadigan, hech qanday mansubliksiz, morfologik o'zgarmas grammatik xususiyatga ega bo'lgan so'z sifatida ta'riflanishi mumkin.)

O'sing Shin (오승신) koreys tilidagi indov so'zlarni shunday ta'riflaydi:

"간투사의 정의는 발화에서 다른 단어와 통사적인 구조를 이루지 않으며, 형태적으로는 활용이나 파생을 하지 않고, 발화 당시의 화자의 내면 상태나 정신 작용을 표출하거나 화자의 뜻을 전달하는 데에 관례적으로 쓰이는 단어이다"[O'sing Shin (오승신),1995:89].

(Undov so'z gapda boshqa so'zlar bilan sintaktik tuzilma hosil qilmaydi, morfologik vazifa bajarmaydi. U so'zlovchining gap vaqtidagi ichki holatini aks ettiradigan va yetkazadigan so'zdir.)

Chxve Xo Chol (최호철)o'zining koreys tilidagi undov so'zlar ustida olib borgan chuqur izlanishlari natijasida shunday xulosaga keladi:

“감탄사는 화자가 자신의 느낌이나 의지를 특별한 단어에 의지함이 없이 직접적으로 표시하는 품사이다 ”[Chxve Xo Chol (최호철),2000:361].

(Undov so‘zlar so‘zlovchining his-tuyg‘ularini boshqa biror bir so‘zga ergashmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalovchi so‘z turkumidir.)

Koreyalik tilshunos olim Pyong Shi (평 시) o‘z tadqiqotlaridan kelib chiqib koreys tilidagi undov so‘zlarga quyidagicha ta‘rif beradi:

“독립어는 품사를 기능의 기준에 따라서 분류한 종류이다. 독립어는 독립적으로 쓰여 문장에서 감탄의 기능을 한다. 한국어 감탄사는 발화상황에서 홀로 대답할 나타나 대답하는 기능을 하기도 하고 다른 문장의 앞뒤나 중간에 나타나 발화를 보조하며 발화의 정보 내용과 보조하는 기능을 하기도 한다”[Pyong Shi (평 시) , 2014:20].

Pyong Shi (평 시) tadqiqotlari jarayonida undov so‘zlarni ikki qismga bo‘lib tahlil qiladi. U undov so‘zlarni ma’no jihatidan va gap bo‘laklari jihatidan tahlil qilgan. U undov so‘zlarni ma’nosiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratadi:

1. 감정적 감탄사 his-hayajon undov so‘zlar;

2. 의지적 감탄사 tayanch undov so‘zlar;

3. 입버릇 및 더듬거름 nutqdagi odatiy undov so‘zlar va duduqlanish;

4. 군사-구령 감탄사 harbiy undov so‘zlar.

감정적 감탄사 his-hayajon undov so‘zlar

“감정적 감탄사는 주로 화자가 기분이 좋거나 반가울 때 또는 모르던 것을 알았을 때 쓰는 감탄사이다. 그리고 놀랐을 때나 아플 때나 힘들 때 쓰는 감탄사이다. 주로 사람의 긍정적인 감정이나 부정적인 감정을 표현할 때 쓴다. 즉, 감탄사는 사람의 정서를 직접적으로 표현한다” [Pyong Shi (평 시) , 2014:12].

(His-hayajon undov so‘zlari shaxsning kayfiyati yaxshi bo‘lgan paytda yoki bilmagan narsasini bilganida ifoda etadigan emotsiyalaridir. Shuningdek, hayratlanganda, og‘riq his qilganda yoki qiynalgan ishlatiladigan emotsional leksikalardir. Odatda ijobiy yoki salbiy emotsiya bildirganda ifodalanadi. Ya’ni, undov so‘zlar shaxsning qalbini ichki dunyosini ifoda etadi.)

의지적 감탄사 tayanch undov so‘zlar

"의지적 감탄사는 화자의 의지나 욕구 등을 드러내어 청자에게 청유, 단념, 주의,의문, 명령 등을 나타낸다" [Pyong Shi (평 시) , 2014:16].

(Tayanch undov so'zlar shaxsning tayanch yoki talabini bildirib, tinglovchiga undash, voz kechish, e'tibor, savol, buyruqni ifoda etadi.)

Misol:

1. 아서라, 그러지 마라.

(Asora, unday qilma.)

2. 여보, 식사하세요.

(Azizim, ovqatlanib ol.)

3. 여보세요? 거기 민지 씨 집이죠?

(Allo, bu janob Min Jining uyimi?)

4. 얘는, 뭐가 어쨌다고 화를 내니?

(Ey, nega jaxl qilayapsan?)

5. 이봐! 나 좀 보세.

(Xoy, menga qara.)

Demak, yuqoridagi misollardan kelib chiqib tayanch undov so'zlarni ham o'z navbatida quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin ekan:

1.단념: 아서라

2.부름: 여보, 여보세요, 얘, 이봐

3.의문이나 명령: 앙, 에라, 음

4.대답: 네, 그래요, 응, 글쎄, 아니요, 예, 옛

5.청유나 주의: 자, 이[Pyong Shi (평 시) , 2014:17].

입버릇 및 더듬거름 nutqdagi odatiy undov so'zlar va duduqlanish

"입버릇은 아무 느낌이나 생각 없이 단순히 입버릇으로 섞어 내는 것이다. 더듬거름은 말이 얼른 안 나올 때 말을 더듬는 모양으로 아무 뜻이 없는 소리를 내는 것이다"[Pyong Shi (평 시) , 2014:18].

(Nutqdagi odat bu-hech qanday hissiyot yoki mulohazasiz oddiy odat singari nutqda yuzaga keladigan so‘zlardir. Duduqlanish esa, tilga gap kelmasdan duduqlanish, ya’ni shunchaki ma’nosiz tovushlar chiqarishdir.)

Misol:

가: 어, 있잖아... 할 말이 있는데...

(Xaligi, aytadigan gapim bor edi…)

나. 음, 어디서부터 이야기를 시작해야 할지 모르겠다.

(Mm, qayerdan gap boshlashni bilmayapman.)

Demak, yuqoridagi misollardan kelib chiqib nutqdagi odatiy undov so‘zlar va duduqlanish so‘zlarni ham o‘z navbatida quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin ekan:

입버릇 :뭐, 그래, 그럼, 그러게, 그렇지

더듬거림: 어, 에, 저, 음

군사-구령 감탄사 harbiy undov so‘zlar

“군사·구령 감탄사는 주로 군대에서 제식훈련을 할 때 사용하는 감탄사이다. 군사들이 발화자의 말에 따라 행동을 하게 되므로 실제는 발화자의 주관 의지를 포함한다” [Pyong Shi (평 시) , 2014:19].

(Harbiy undov so‘zlar asosan armiyada askarlarga buyruq berayotganda ishlatilinadi.)

Misol:

거총, 걸어-총, 검사-총, 경례, 기준, 꽂아-칼, 꿇어사격, 뒤로-돌아, 뒤로돌아-가, 뛰어-가, 모여, 모여총, 무릎-쏴, 무릎-앉아, 바른걸음으로-가, 반걸음으로-가, 받들어-총, 번호, 서격, 서서-쏴, 세워-총, 쉬어, 쏘아, 쏴, 앉아, 앉아-쏴, 앞에-총, 앞으로-가, 어깨-총, 앞드려-뻗쳐, 엎드려-쏴, 열중-쉬어, 영접들어총, 우로-나란히, 우로-봐, 우로-어깨총, 우향앞으로-가, 우향-우, 일어-서, 제자리에-사, 좌로어깨-총, 좌향앞으로-가, 좌향-좌, 주목, 지어-총, 차려, 차렷, 편히-쉬어, 편히-앉아, 헤쳐 [Pyong Shi (평 시) , 2014:19].

Xulosa. His-hayajon undov so‘zlari shaxsning kayfiyati yaxshi bo‘lgan paytda yoki bilmagan narsasini bilganida ifoda etadigan emotsiyalaridir. Shuningdek, hayratlanganda, og‘riq his qilganda yoki qiynalgan ishlatiladigan emotsional leksikalardir. Odatda ijobiy yoki salbiy emotsiya bildirganda ifodalanadi. Ya’ni, undov so‘zlar shaxsning qalbini ichki dunyosini ifoda etadi. Undov

so‘z funksional tomondan boshqa so‘zlar bilan hech qanday aloqa bog‘lamaydi. U so‘zlovchining ichki holatini yoki aqliy harakatini ifodalash yoki so‘zlovchining niyatini bildirish uchun kontekstga bog‘liq holda qo‘llanadigan, hech qanday mansubliksiz, morfologik o‘zgarmas grammatik xususiyatga ega bo‘lgan so‘z sifatida ta’riflanishi mumkin. Undov so‘zlar odatda 4 ga bo‘linadi: 감정 감탄사, 의지 감탄사, 입버릇 및 더듬걸음 감탄사, 군서-구령 감탄사. Jonli va tabiiy nutq tuzish uchun albatta nutqda unga mos ravishda emotsiyani ifodalash lozim. Uning uchun esa undov so‘zlarni bir-biridan farqlay olish va to‘g‘ri foydalanish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Madaminova D. Koreys tilida undov gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari. Toshkent: 2014,-36b.

2.오승신.국어의 간투사 연구. 이화여자대학교, 1995.- 300 p.

3.이시애.한국어 간투사 연구. 조선대학교, 2011.313 p.

4.최호철.현대국어 감탄사의 분절 구조 연구 -감정 감탄사를 중심으로. 한국어내용론,2000.-408p.

5.평시.한국어-중국어 감탄 표현의 대비 연구.단국대학교 대학원,2014.-93 p.